

YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR)

Haqqulov Mehriddin Yunusovich

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o’qituvchisi.

mexriddinhaqqulov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14889214>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Avstriya davlatining vujudga kelishi va uning rijovlanishi tarixi bilan bog’liq tarixiy ma’lumotlar keltirilgan. Rudolf Gabsburg boshchiligidagi sulola vakillarining Markaziy Yevropa hududlaridagi bosqinchilik harakatlari va diniy urushlardagi ishtiroki, 30 yillik urushning imperiya taraqqiyotiga ta’siri bilan bog’liq ma’lumotlardan maqoladan o’rin olgan.

Tayanch so’zlar: Gabsburglat, Maksimilian I, Avstriya, Muqaddas Rim imperiyasi, Turkiya, O’rta Yer dengizi, Gollandiya, Angliya, Rossiya, Vengriya, Sileziya, Chexiya, G’arbiy Yevropa, “Muqaddas liga”, Transilvaniya va Serbiya, Sen-Gotard, Leopold I, Vatikan, Venesiya, Polsha.

SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE AUSTRIAN (HABSURG) EMPIRE IN THE MODERN ERA (16TH-18TH CENTURIES)

Abstract. This article presents historical information related to the creation of the Austrian state and the history of its development. The article contains information about the participation of representatives of the dynasty led by Rudolph Habsburg in invasions and religious wars in Central European regions, and the influence of the 30-year war on the development of the empire.

Keywords: Habsburglat, Maximilian I, Austria, Holy Roman Empire, Turkey, Mediterranean, Holland, England, Russia, Hungary, Silesia, Czech Republic, Western Europe, "Holy League", Transylvania and Serbia, Saint Gothard, Leopold I, Vatican, Venice, Poland.

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ АВСТРИЙСКОЙ (ГАБСБУРГСКОЙ) ИМПЕРИИ В НОВОЕ ВРЕМЯ (XVI-XVIII ВВ.)

Аннотация. В данной статье представлены исторические сведения, связанные с созданием Австрийского государства и историей его развития. В статье содержатся сведения об участии представителей династии Рудольфа Габсбургов во вторжениях и религиозных войнах в центральноевропейские регионы, а также о влиянии 30-летней войны на развитие империи.

Ключевые слова: Габсбурглат, Максимилиан I, Австрия, Священная Римская империя, Турция, Средиземноморье, Голландия, Англия, Россия, Венгрия, Силезия, Чехия,

Западна Европа, «Священная лига», Трансильвания и Сербия, Сен-Готард, Леопольд I, Ватикан, Венеция, Польша.

XVII–XVIII asrlarda Gabsburglar sulolasiga qarashli yerlar deyarli tinimsiz kengayib bordi va Gabsburglar davlati Yevropaning eng katta davlatlaridan biriga aylandi. O'ttiz yillik urush bu jarayonni to'xtatgan bo'lsada, Gabsburglar nafaqat «German millatining Muqaddas Rim imperiyasi imperatori» degan formal unvonni, balki mayda davlatlardan iborat Germaniyaning ichki ishlariga aralashish huquqi va shu mintaqadagi siyosiy ta'sirini ham saqlab qoldi. Imperiya hududining juda kattaligiga qaramasdan uning markazi va sulola qudratining manbai Avstriya yerlari, Chexiya va Sileziya edi. Avstriyaning yuksalish sabablaridan biri shundaki, u yaqin qo'shnilaridan oldinroq absolyut monarxiyaga asoslangan markazlashgan davlatni tashkil qila oldi. Bu davlatga hali XVI asrdayoq Maksimilian I (1459–1519) o'tkazgan islohotlar tufayli asos solingan va XVII asrda Ferdinand II va uning vorislari tomonidan mustahkamlangan edi.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi va Avstriyaning kuchayishiga yana bir sabab, to XVII asrning oxirigacha saqlanib turgan Turkiya bosqini xavfi edi. Butun XVII asr davomida yuz bergan qirg'inbarot urushlar hamda savdo yo'llarining O'rta Yer dengizi havzasidan Atlantika okeani tomon siljishi Avstriyaning iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hunarmandchilikdan manufaktura ishlab chiqarishiga o'tishning juda sekinligi oqibatida sanoatning bir paytlar o'ta rivojlangan tarmoqlari ham deyarli to'xtab qoldi. Faqat qurolsozlik, tog'-kon va metallga ishlov berish sohalari o'z mahsulotlarini Gollandiya, Angliya va Rossiyaga sotganligi tufayli rivojlanish sur'atini saqlab qoldilar. XVII asrda hukumat doimiy va aniq miqdorda to'lanadigan yangi soliq – «kontributsiya»ni joriy qiladi. Bu davrda ham har xil soliqlar va majburiyatlarga qarshi ov qilish va baliq tutish hamda o'rmonlar va boshqa jamoa yerlaridan foydalanish huquqlarini tiklash uchun dehqonlarning qo'zg'olonlari bo'lib turdi. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlaridagi urushlar. O'ttiz yillik urush va Vestfal tinchlik sulhi Avstriyaning tashqi siyosati va xalqaro obro'siga katta o'zgarishlar kiritdi. G'arbiy Yevropada yangi yerlarni bosib olishning mumkin emasligi yaqqol ko'rinib qoldi. O'zining asriy raqibi Fransiya bilan raqobat kun tartibidan olib tashlanmasada, endi Avstriya Sharqqa, hukmronligi borgan sari kuchsizlanib borayotgan Usmoniylar imperiyasi egallab turgan yerlarga o'z nigohini qaratdi. 1664 yili Montekukkoli qo'mondonligidagi avstriyaliklar armiyasi turk qo'shinlari ustidan dastlabki yirik g'alabani qo'lga kiritdi. Ammo Sen-Gotard yonidagi bu g'alaba rivojlantirilmadi va mustahkamlanmadi. Imperator Leopold I (1640–1705) tinchlik sulhini tuzishga shoshildi. Natijada vujudga kelgan imkoniyatdan turklar yangi urushga tayyorgarlik ko'rish uchun foydalandi. Fransuzlar tomonidan gij-gijlatilgan Turkiya 1683 yili urush harakatlarini yangidan boshlab, yomon qurollangan va tayyorgarlik ko'rmagan Avstriya qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi va 10-iyul kuni Venani qamal qildilar.

Avstriya halokat yoqasiga kelib qoldi. Polsha qiroli Yan Sobeskiy qo'shinlarining yordami Avstriyani muqarrar halokatdan qutqaribgina qolmasdan, turklar bosqini xavfidan butunlay xalos qildi. «Muqaddas liga» (Vatikan, Venesiya, Polsha) tomonidan qo'llab-quvvatlangan Avstriya endi birin-ketin g'alabalarga erishib, 1685 yili Buda hududini va Vengriyaning katta qismini egalladi, ikki yildan so'ng esa Transilvaniya va Serbiya hududiga kirib bordi. Turkiya bilan urush qariyb 10 yil davom etdi. 1697 yil yosh shahzoda va o'z davrining qobiliyatli sarkardasi Yevgeniy Savoyskiy Zenta (Vengriya) yonidagi jangda hal qiluvchi g'alabaga erishdi. 1699 yilning boshida Karlovisa tinchlik sulhi imzolaniib, unga ko'ra butun Vengriya, Transilvaniya va Xorvatiya Gabsburglar hukmronligi ostiga o'tdi. XVIII asr boshlarida Avstriya butun Yevropani qamrab olgan ispan taxti uchun bo'lgan urushda (1701–1714) qatnashdi. Bu urush Gabsburglar uchun shunisi bilan qiyinlashdiki, u venger xalqining Avstriya istibdodiga qarshi Rakosi II boshchiligidagi qo'zg'oloni (1703–1711) bilan bir paytga to'g'ri keldi. Urush boshlanganidan ikki yil keyin Bavariya bilan Fransiyaning birlashgan qo'shinlari Vengriya qo'shinlari bilan qo'shilish maqsadida Avstriyaning Tirol provinsiyasiga bostirib kirdi. Faqat Tirol xalqining qarshiligi fransuz-bavar armiyasini to'xtatib qoldi va bu Avstriya hamda Angliya armiyasiga hujumga o'tish imkoniyatini berdi. 1704 yil 13 avgust kuni shahzoda Yevgeniy va gersog Malboro qo'mondonligidagi Avstriya-Angliya qo'shinlari fransuz-bavar armiyasini tor-mor keltirdi. Shu tariqa urushning borishida burilish yasaldi. 1713–1714 yillari Utrext va Rashtadtda tinchlik shartnomalari imzolaniib, Italiyaning katta qismi (Neapol, Milan, Sardiniya), Belgiya va Reynning ba'zi hududlari (Freyburg) Gabsburglar imperiyasiga qo'shib olindi. Oradan ikki yil o'tgach avstriyaliklar turklarga qarshi yangi urush boshladi va o'zlari uchun nihoyatda foydali bo'lgan Pojarevas sulhini imzolashga turklarni majbur qildi. Avstriya Bosniya va Serbiyaning bir qismini (Belgrad shahri bilan), Sloveniya va Valaxiyaning katta qismini, shuningdek, Banatni (Temeshvar shahri bilan) o'z tarkibiga qo'shib oldi. Eng muhimi esa, Usmoniylar imperiyasining hamma hududida bojsiz savdo qilish va Dunay daryosi, Qora va O'rta Yer dengizlarida Avstriya kemalarining erkin suzish huquqini qo'lga kiritdi. Shunday qilib, XVIII asrning dastlabki o'n yilligida Avstriya o'z qudratining cho'qqisiga erishdi.

XVII asrning 80-yillaridan Avstriyada merkantilizm g'oyalari tarqala boshlaydi. Merkantilizmning Avstriya maktabi namoyandalari (ular kameralistlar deb atalgan) iqtisodiy islohotlarning butun dasturini olg'a surdilar. Islohotlar dasturi Iosif (1705–1711) va Karl VI (1711–1740) davrida amalga oshirildi. XVIII asr boshida yangi tashkil qilingan manufakturalarni moliyalash maqsadida Davlat banki tashkil qilindi. 1719 yili hukumat Fium va Triyest portlarini ochiq portlar deb e'lon qildi hamda ularni mamlakatning ichki hududlari bilan bog'laydigan yo'llar qurilishini boshladi. Shu yillari Adriatika dengizidagi Avstriya flotiga asos solindi. Islohotlar sanoatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Eski manufakturalar bilan bir qatorda fabrika tipidagi yangi yirik manufakturalar paydo bo'ldi. Syex tuzilishiga qarshi ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1725 yili imperator shogirdlarning diplomsiz va syexlardan tashqarida hunarmandchilik bilan shug'ullanishiga ruxsat beruvchi dekret e'lon qildi. 1731 yili Karl VI tomonidan chiqarilgan dekret esa barcha syexlarning sanoat faoliyatini mahalliy hokimiyatlar nazorati ostiga qo'ydi. XVIII asrdagi iqtisodiy yuksalish sekinlik bilan bo'lsada, qishloq xo'jaligida ham yuz berdi. Kartoshka, beda, makkajo'xori singari yangi ekinlarning paydo bo'lishi, o'g'itlarning qo'llanilishi, uch dalali ekish tizimidan voz kechilishi xo'jalikning intensiv rivojlanishiga olib keldi. Ayni paytda qishloqda tabaqalanish kuchayib, boy dehqonlar va mutlaqo mulksiz kambag'allarning soni ortib bordi. Yersiz qolgan kambag'allar hisobiga qishloqda yollanma ishchilar soni oshdi.

Avstriya taxti uchun urush. 1740 yili Karl VI ning vafotidan so'ng Gabsburglar sulolasida erkak kishi qolmadi. Buni oldindan hisobga olgan Gabsburglar 1723 yili Pragmatik sanksiya deb ataluvchi hujjat qabul qiladi. Unga binoan taxt vorisligi jinsidan qat'i nazar sulolaning yoshi katta vakiliga o'tar edi. Bu hujjat shuningdek, Gabsburglar davlati chegaralarining daxlsizligi va birinchi navbatda Avstriya, Chexiya va Vengriyadan iborat hududning bo'linmasligini ham e'lon qildi. Ammo bu hujjatni qo'shni davlatlar, ayniqsa Gabsburglarning asosiy raqiblari bo'lgan Prussiya va Fransiyaning diplomatik tan olishi og'ir kechdi. 1740 yili 23 yoshli Mariya Tereza taxtga kelganda Avstriyaga qarshi Fransiya, Ispaniya, Bavariya, Savoy va Prussiyadan iborat koalitsiya tashkil qilinib, ular Avstriya taxtiga Bavariya kurfyurstini o'tqazish va imperiyaning asosiy yerlarini bo'lib olish haqida kelishib olgan edilar. Shu tariqa Yevropada Avstriya taxti uchun urush boshlandi. Avstriyaning ittifoqchilari bo'lgan Rossiya va Buyuk Britaniya deyarli yordam ko'rsata olmadilar (Rossiya Shvesiya bilan urushayotgan edi). Faqat 40 ming kishilik vengerlar armiyasigina Mariya Terezani va butun imperiyaning halokatdan saqlab qoldi. 1748 yilgi Aaxen sulhiga ko'ra Mariya Tereza taxtni o'zida saqlab qoldi, Belgiyani qaytarib oldi, ammo Parma va Italiyaning boshqa bir qator hududlarini Ispaniyaga, eng og'iri esa Sileziyani Prussiyaga berishga majbur bo'ldi.

Xulosa

XVIII asrga kelib juda katta hududni egallagan imperiyaning turli joylarida iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi har xil edi. Feodal yer egalarining hukmronligi ham mamlakat iqtisodining rivojiga to'sqinlik qilayotgan edi. To'xtovsiz olib borilgan urushlar tufayli davlat budgetidagi kamomad ham yil sayin o'sib bordi. Shunday qilib, XVIII asr oxiriga kelib Gabsburglar imperiyasida olib borilgan islohotlar natijasida krepostnoy huquq bekor qilingan, kishilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan boshqa bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, to'xtovsiz urushlar vamiy ozodlik harakatlari imperiyaning qudratiga putur yetkaz- di.

Ayniqsa Buyuk Fransuz burjua inqilobidan so'ng uning ta'siridan qo'rqan hukumat bir qator ijobiy islohotlarni bekor qilishga majbur bo'ldi.

REFERENCES

1. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
2. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
3. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
4. Ozodlik va mustaqillik g'oyalarini, A. O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI" Haqqulov Mehriddin Yunusovich.
5. Azizovich, G. A., Vahobovna, S. G., & Haqqulov, M. Y. O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
8. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
9. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
10. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.
11. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
12. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
13. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.

14. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
15. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
16. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
17. Obid o'g'li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG'OR XONLIKLARI O'RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
18. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
19. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
20. Sadullayev U. (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376–385.
21. Sadullaev U. (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344–352.
22. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238–241.
23. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
24. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
25. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.
26. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.

27. Rahmonova, S. S. Q. (2024). O 'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVYI-MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 95-104.
28. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
29. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
30. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
31. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In Психология образования будущего: От традиций к инновациям (pp. 112-114).
32. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 49-51.
33. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1502>
34. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
35. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
36. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
37. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>

38. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
39. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 36(2), 149-153.
40. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
41. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
42. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
43. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
44. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA–QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
45. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
46. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
47. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
48. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
49. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
50. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
51. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
52. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

53. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
54. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
55. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
56. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
57. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
58. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.